

**O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti “Huquqiy fanlar” kafedrasи davlat boshqaruvi yo’nalishi 1-bosqich magistrлari uchun “MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH” fanidan**

**Yakuniy nazorat savollari**

1. Mahalliy boshqaruv tushunchasi va uni samarali amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy masalalarini mavjud qonunchilik asoslaridan kelib chiqqan holda tahlil qiling;
- 2.Mustaqillik yillarda mahalliy hokimiyat tizimini isloh etishning asosiy yo’nalishlari va bosqichlari borasida mulohaza yuriting; fikringizni amaliy misollar orqali asoslantirishga harakat qiling;
3. Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati boshqarmalari tuman filiali mudiri S. veterinariya qoidalari va normalarini buzganlik uchun fuqaro J.ga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 109-moddasida Nazarda tutilgan, ya’ni veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalarini Buzish ma’muriy huquqbuzarligi bo‘yicha bayonnomma tuzadi va ma’muriy jazo chorasi qo’llash haqida qaror chiqaradi. Topshiriq: Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati boshqarmalari tuman Filiali mudiri S.ning harakatlari to‘g‘rimi?
- 4.Mahalliy boshqaruv madellari va ularning turlari qanday? Mahalliy boshqaruv madellarining har biriga misollar keltiring;
- 5.Mahalliy boshqaruv fanining davlat boshqaruvini takomillashtirish, jamiyatni demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishdagi ahamiyati borasida so’z yuriting;
- 6.N. ismli shaxs Qирғизистонда түг‘илганлиги, 1994 йил сентябр ойидан буюн
- 7.O‘zbekiston Respublikasi Andijon viloyatida doimiy ro‘yxatdan o‘tib, yashab kelayotgani, shu kunga qadar fuqaroligi bo‘lmagan shaxs sifatida yurganligi haqida ma’lum qilib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi maqomiga ega bo‘lishi mumkin yoki mumkin emasligi yuzasidan huquqiy tushuntirish berishni so‘radi. Bunga javoban, Andijon shahar ichki ishlar boshqarmasi shaxsni mamlakatda bo‘lish qoidalarini buzganlikda aybladi. Kazual holatga huquqiy yechim bering;
- 8.Mahalliy vakillik hokimiyati organlari tizimi va ularning tarkibiy qismlari faoliyat vakolatlarini tahlil qiling;
- 9.Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi mahalliy hududiy boshqarmalarining funksional vazifalarini tahlil qiling;
- 10.Maktab direktori 2000 o‘quvchi ta’lim oladigan umumta’lim muassasasida sport bilan shug’ullanish uchun qishki maxsus binoni qurib berish masalasi bo‘yicha tuman hokimligiga ariza bilan murojaat qilganda, tuman hokimi bu masala tuman byudjeti rejalaridan joy olmaganligini vaj qilib ko’rsatib, maktab

o'quvchilarining sport bilan qishda shug'ullanmasliklari yoki boshqa hududdagi maktab sport zaliga borib shug'ullanishni tavsiya qildi. Vaziyatga huquqiy baho bering. Javobingizni mavjud qonunchilik asoslari yordamida huquqiy jihatdan asoslab bering.

11. Mahalliy hokimiyat organlarining qanday vazifalari mavjud? Ularning vazifalari ijrosi qay tartibda amalga oshiriladi?

12. O'zbekistonda hokimlik institutining joriy etilishi huquqiy asoslarini atroficha tahlil qiling;

13. Deputat sessiya jarayonida muhokama qilinayotgan masala yuzasidan keskin munosabat bildirgani uchun xalq deputatlar kengashi raisi tomonidan sessiya yig'ilishidan chetlashtirildi. Vaholanki, deputat, munosabat bildirish jarayonida, odob axloq normalaridan chetga chiqib ketmagan. Vaziyatga huquqiy yechim bering;

14. Deputatlilik so'rovi tushunchasi va uni amalga oshirish tartibi qanday?

15. Mahalliy saylov okruglarida takroriy saylov o'tkazish tartibi qanday? Fikringizni sohaviy qonunchilik normalari asosida izohlashga harakat qiling;

16. Sessiya tushunchasi va uni tashkil etish tartibi to'g'risida mulohaza yuriting;

17. Viloyat xalq deputatlar sessiyasiga qatnasha olmagan deputat viloyat xalq deputatlar kengashi raisi qaroriga ko'ra, navbatdagi sessiyalarda qatnashish huquqidan mahrum qilindi. Vaziyatga huquqiy yechim bering; fikringizni sohaviy qonunchilik normalaridan kelib chiqqan holda asoslantiring;

18. Mahalliy ijro hokimiyati organlar tizimi va ular faoliyatini huquqiy tartibga solish huquqiy asoslarini tahlil qiling;

19. Saylov huquqi va saylov tizimi borasida mulohaza yuriting.

20. Majburiy ijroga qaratilgan jarima solish to'g'risidagi qaror yuzasidan davlat ijrochisi tomonidan bir oy davomida qaror ijrosi ta'minlanmaganligi sababli, qarorni yuborgan organ (mansabdor shaxs) tomonidan davlat ijrochisi ustidan yuqori turgan organga shikoyat berildi. Savol: Ma'muriy jarima solish to'g'risidagi qarorni yuborgan organ (mansabdor shaxs) shikoyati asoslimi?

21. Majoritar saylov shaklini amaliy misollar yordamida tushuntirishga harakat qiling;

22. Aralash saylov shaklining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

23. Nogironligi bo'lgan shaxs mahallasida tashkil etilgan saylov uchastkasidan vakil kelmaganligi uchun saylovlarda qatnasha olmadi. Bu masala bo'yicha, u, prokuratura organlariga ariza bilan murojaat qildi. Saylov uchastkasi vakillariga nisbatan qanday javobgarlik qo'llaniladi? Vaziyatga huquqiy yechim bering;

24. Xalq deputatlari mahalliy kengashlarining huquqiy maqomi borasida mulohaza yuriting;

- 25.Xalq deputatlari Viloyat, tuman-shahar kengashlariga saylov o'tkazish tartibi qanday?
- 26.Deputat viloyat hokimi bilan ish yuzasidan kelisha olmay qolganligi uchun viloyat hokimi uni daxlsizlik huquqidan mahrum qilish bo'yicha qaror chiqardi. Viloyat hokimi hatti harakatliga huquqiy baho bering;
- 27.Deputatlarning daxlsizlik huquqidan mahrum qilish asoslari qanday?
- 28.Proporsional saylov shaklini tashkil etish tartibini tushuntiring.
- 29.Saylovchi fuqaro Ahmedov saylovda ishtirok etish tartibini tushunmasligi, shuningdek, saylovda nomzodlari qo'yilgan nomzodlarning borortasini ham tanimasligini aytib saylovda qatnashishdan bosh tortdi. Mahalla raisi esa, saylovlarda qatnashmasa, ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik bo'lish ehtimoli borligini ta'kidladi. Mahalla raisining hatti harakatlariga huquqiy baho bering.
- 30.Majoritar va proporsional saylov tizimlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qiling;
- 31.Saylov okrugini tashkil etish tartib qanday? Javobingizni huquqiy asoslar yordamida tushuntirib berishga harakat qiling.
- 32.Saylov tashkil etilishiga bir kun qolganda, tuman hokimi. maktab hududida joylashgan saylov uchastkasini joyini o'zgartirish kerak ekanligini aytib, saylov uchastkasi raisi nomiga taqdimnomalarini kiritdi. Uning e'tirozicha, bu maskanda, shaffof saylov jarayonlarini tashkil etish bo'yicha yetarlicha shart sharoitlar mavjud emas. Tuman hokimining hatti harakatlariga huquqiy baho bering. Javobingizni qonunchilik normalari orqali asoslantiring.

*Savollar fan dasturi asosida tuzilganligiga va stilistik, orfografik jihatidan xato emasligiga kafolat beraman.*

Huquqiy fanlar kafedrasini  
mudiri v.v.b

Tuzuvchi o'qituvchi:



Sh.Saidov

B.Ismailov